

**PATENT VAKILLARI INSTITUTINI KUCHAYTIRISH ORQALI
INTELLEKTUAL MULK OBYEKTLARINI HUQUQIY MUHOFAZA
QILISH KO'LAMINI OSHIRISH**

Amirqulov Sardor Tolibjon o'g'li

Toshkent shahar adliya boshqarmasi

Intellektual mulk huquqlarini himoya qilish sho'bası boshlig'i

Annotatsiya: intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilish jarayonida patent vakillarining o'rni muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: patent vakili, adliya organlari, intellektual mulk obyektlari, patent, guvohnoma.

Patent vakili intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilish masalalarida jismoniy va yuridik shaxslar manfaatlarini vakolatli davlat organlari va sudlarda professional asosda ifodalash huquqiga ega bo'lgan maxsus maqomli vakil hisoblanadi.

Patent vakili intellektual mulk obyektlari ya'ni ixtiro, foydali model, sanoat namunasi, tovar belgisi, xizmat ko'rsatish belgisi, geografik ko'rsatkichlar va boshqa intellektual mulk obyektlari bo'yicha ariza topshirish, ekspertiza jarayonida ishtirok etish, e'tiroz va shikoyatlar berish masalalarda vakillik qiladi.

Jismoniy shaxslar Vazirlikda attestatsiyadan va ro'yxatdan o'tgandan keyin patent vakillari sifatida faoliyatni amalga oshirishga haqlidir. O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashaydigan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari patent vakillari sifatida attestatsiyadan va ro'yxatdan o'tkazilishi mumkin¹.

Agar huquqiy hujjatda bir jumla bilan aytadigan bo'lsak, patent vakili intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilish sohasida maxsus bilim va vakolatga ega bo'lgan professional vakildir.

¹ <https://lex.uz/docs/-245257>

Mamlakatimizda intellektual mulk sohasida huquqiy himoyani kuchaytirish hamda patent vakillari institutini yanada rivojlantirish maqsadida bir qator muhim ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-noyabrdagi 358-son qaroriga muvofiq, patent vakillariga intellektual mulk bilan bog'liq nizolar (masalalar) bo'yicha fuqarolik ishlari, iqtisodiy hamda ma'muriy sudlarda shartnoma asosida, ya'ni ixtiyoriy vakil sifatida ishtirok etish huquqi berildi². Bu esa huquq egalari manfaatlarini sud jarayonlarida yanada samarali himoya qilish imkonini yaratdi.

Shuningdek, patent vakillarining kasbiy salohiyatini doimiy ravishda oshirishga qaratilgan qulaylik joriy etilib ularning har uch yilda malakasini oshirish tartibi joriy etildi. Bu orqali, patent vakillarning har besh yilda attestatsiyadan o'tish talabi bekor qilindi.

Bundan tashqari, patent vakillari nomzodlarini imtihondan va ro'yxatdan o'tkazish vakolati hududiy adliya organlariga berildi. Bu esa hududlarda patent vakillari institutini yanada kengaytirish, shuningdek, nomzodlar uchun kasbga ega bo'lish jarayonini tezkor va qulay tashkil etishga xizmat qiladi.

Patent vakili institutining takomillashtirilishi intellektual mulk obyektlari egalari huquqlarini malakali va professional himoya qilinishiga, ekspertiza jarayonida protsessual xatolarning kamaytirilishiga va intellektual mulk huquqlarining barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Mazkur tashabbuslarning amalga oshirilishi patent vakillari faoliyatining huquqiy asoslarini mustahkamlash, ularning professional imkoniyatlarini

² <https://lex.uz/uz/docs/-7864188>

kengaytirish hamda intellektual mulk huquqlarini himoya qilish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.11.2025-y., 07/25/358/1105-son.
2. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 10.06.2022-y., 09/22/324/0510-son).